

IKKINCHI MUTAXASSISLIKKA KIRISH IMTIHONLARI BO'LIB O'TDI

2019- yil 30-avgust kuni Andijon davlat tibbiyot instituti ilmiy kengashlar zalida ikkinchi mutaxassislikka kirish uchun imtihonlari bo'lib o'tdi.



Imtihonlar O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi ta'limni O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasining 2008-yil 13-avgustdagi 15-son bayonnomasi bo'yicha tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 21-avgust kuni 1844-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi ta'limni olish tartibi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq o'tkazildi.



Institut rektori M.Madazimov imtihonlardan oldin abituriyentlarni yig'ib, tartib-qoidalar va adolatlilik mezonlari haqida tushuncha berdi, barchaga omad tiladi.



Shundan so'ng, imtihonlar boshlandi. Dastlab test savollari solingan konvert abituriyentlar guvohligida ochildi. Imtihonlarni institut rektori M.Madazimov, qabul komissiyasi mas'uli S.Salohiddinov, ilmiy bo'lim boshlig'i G.Mamatxodjaeva va institut profeesor o'qituvchilari kuzatib bordilar.



Ikkinchi mutaxassislikka kirish istagidagi yigit-qizlar navbat bilan belgilangan vaqt oralig'ida test sinovlarini topshirdilar. Test sinovlari tartibli va xolis tarzda o'tkazildi.

YANGI O'QUV YILI OLDIDAN ILMIY KENGASH YIG'ILISHI O'TKAZILDI

2019-yil 28- avgust kuni Andijon davlat tibbiyot institutida navbatdagi ilmiy kengash yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishni institut rektori, professor M.M.Madazimov ochdi va jamoani yaqinlashib kelayotgan Mustaqilligimizning 28 yillik ayyomi, shuningdek, yangi boshlanayotgan 2019-2020 o'uv yili bilan samimiy muborakbod etdi.



Yig'ilish avvalida bayramona qutlovlar tashkil etildi.Unda umumiy jarrohlik kafedrası o'qituvchisi Sh. Qodirovning doktorlik dissertatsiyasi yoqlaganligi munosabati bilan OAKning maxsus diplomi va pul mukofoti, shuningdek, uning ilmiy rahbari ADTI professori Y.Egamovga pul mukofoti topshirildi.

“Istiqbolli kadrlar” respublika tanlovida muvaffaqiyatli ishtirok etib, g'olib bo'lganligi uchun farmakologiya ka klinik farmakologiya kafedrası o'qituvchisi Z.Ergasheva, onkologiya va tibbiy radiologiya kafedrası mudiri D.Mamarasulovalar ham taqdirlandilar.

Gospital terapiya kafedrası mudiri Sh. Yusupova, fakultet

pediatriya va neonatologiya kafedrası mudiri B. Inaqova, jarrohlik va urologiya kafedrası mudiri F.Nishonov, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası katta o'qituvchisi B.Botirovalar yangi o'quv darslik yaratganliklari uchun ilmiy kengash a'zolari nomidan tabriklandilar. Mualliflarga pul mukofotlari topshirildi.

Yig'ilishda muhim masalalar ko'rildi. Birinchi masala – O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 28 yilligiga tayyorgarlik ishlarining borishi haqida institut yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor P.Asxanovning ma'ruzasi tinglandi.



Shuningdek, yangi 2019-2020 o'quv yiliga kafedralarning o'quv- uslubiy ishlar bo'yicha tayyorgarligi to'g'risida o'quv ishlari bo'yicha prorektor A.Arziqulov, ADTIning 2018 – yil reyting natijalari haqida ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i G'.To'ychiev, yangi o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari to'r'risida ishlar boshqarmasi boshlig'i Z.Mamajonovlar ma'ruza qildilar.



Ilmiy kengash yig'ilishida ilmiy axborotlar va yangi o'quv yilidagi yangiliklar e'lon qilinib, tegishli qarorlar qabul qilindi.



2019/2020 o'quv yilida xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan o'qishni ko'chirish va ko'chirib qayta tiklash uchun masofaviy maxsus (onlayn test) sinovlarni o'tkazish grafigi

Ваш браузер не поддерживает плавающие фреймы!

[Yuklab olish](#)

“Shifokorlar” Yoshlar festivalida

Qalbi qaynoq, sho'x-quvnoq, ilmga chanqoq yoshlarning har bir davrasi o'yin-kulgu, kuy-qo'shiq, raqslarga boy bo'ladi. O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi tashabbusi bilan Andijon viloyatida “Buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo'laylik” shiori ostida o'tkazilgan Yoshlar festivali ham yoshlarning sho'x kulgusiga to'liq bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi davlat Mustaqilligining 28 yilligiga bag'ishlangan Yoshlar festivalida O'zbekiston Yoshlar ittifoqining shahar, tuman Kengashlari yetakchilari, ilm-fan, san'at, adabiyot, sport sohalarining turli yo'nalishlari bo'yicha viloyatdagi iqtidorli yoshlar, harbiy qismlarning

mard, jasur askarlari, ichki ishlar tizimlarida xizmat qilayotgan yosh mutaxassislar ishtirok etishdi. Respublikada birinchi bo'lib Andijon viloyatida o'tkazilgan mazkur Yoshlar festivalida Andijon davlat tibbiyot institutining talabalari ham faol ishtirok etishdi.



ADTI talabalarining "Shifokorlar" teatr studiyasi Bobur nomidagi viloyat teatrining muhtasham binosida Dilmurod Shayxov rejissyorligidagi "Ko'cha bolalari" spektaklidan parcha namoyish etdilar. Yoshlar tarbiyasidagi muammolarga bag'ishlangan mazkur sahna asari yoshlar tomonidan davomli olqishlar bilan qarshi olindi. Institutning quvnoq va zukko talabalaridan iborat "Ulfatlar" jamoasining sahna ko'rinishlari esa tomoshabinlarning kayfiyatini yanada ko'tardi. Kelajakda shifokor bo'lish orzusida tahsil olayotgan xushovoz talaba Ilhomjon Hoshimov ijrosidagi ona yurtimiz, maftunkor va betakror Vatanimizni madh etgan q'o'shiqqa barcha yoshlar jo'rovoz bo'lgan bo'lsa, uning sho'x qo'shiqlari esa, bayram ishtirokchilarini ommaviy raqsga chorladi. Institut talaba yigitlari esa "Andijon polkasi" raqsini gulduros qarsaklar ostida ijro etishdi.



"Buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo'laylik" shiori ostida o'tkazilgan Yoshlar festivali doirasida viloyatning turli hududlarida rang-barang mavzularda davra suhbatlari, uchrashuvlar, ko'ngilochar tadbirlar uyushtirildi. Har bir tadbirda mamlakatimiz yoshlarining ulkan yutuqlari alohida e'tirof etildi, ularni yangi-yangi manzillar, zafarlarga undadi.



Festival Andijon viloyati yoshlarini bir maqsad uchun yagona kuch sifatida birlasha olishini yana bir bor ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi davlat Mustaqilligining 28 yillicigiga bag'ishlangan tadbirlar esa davom etmoqda.

0'zbekiston-Dog'iston qo'shma ta'lim dasturi asosida kirish imtihonlari bo'lib o'tdi

2019- yil 27 -avgust kuni Andijon davlat tibbiyot instituti kengashlar zalida 2019-2020 – o'quv yili uchun ADTI hamda Rossiya Federatsiyasining Dog'iston davlat tibbiyot universiteti bilan xalqaro qo'shma fakulteti (stomatologiya) bakalavriyat yo'nalishi uchun kirish imtihonlari bo'lib o'tdi.



Kirish sinovlari boshlanishidan avval institut rektori M.Madazimov barcha abituriyentlarni yig'ib, imtihonlar har jihatdan adolatli, shaffof o'tishini ta'kidladi hamda ularga omad va zafarlar tiladi.



Shundan so'ng, imtihon biletleri solingan konvertlar abituriyentlar guvohligida ochilib, sinovlar boshlandi. Imtihon jarayonlarining tartibli, adolatli va shaffof o'tishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston "Adolat" SDP Andijon shahar Kengashi deputati Shohidaxon Valieva ishtirok etdi.



Shuningdek, har ikki tomon oliy ta'lim muassasasi vakillari imtihon jarayonini onlayn tarzda kuzatib bordilar.



Imtihon jarayonida ota-onalar ham kuzatuvchi sifatida qatnashdilar. Jumladan, Andijon shahrida yashovchi fuqarolar M.Abdurahimova va M.Igamberdievalar o'z farzandlarining sinovlardagi ishtirokiga guvoh bo'ldilar.



Sinovlar tartibli, xolis va odilona tarzda o'tkazildi.



Assalomu alaykum, hurmatli ota-onalar !

Xorijiy fuqarolar uchun imtihon o'tkazilib, mandat natijalari e'lon qilindi!

Andijon davlat tibbiyot institutida 2019 – yil 26 –avgust kuni 2019 -2020 o'quv yili uchun xorijiy fuqaro abituriyentlarining og'zaki imtihoni bo'lib o'tdi.



Shu kuni mandat natijalari e`lon qilindi. Imtihonda 20 nafar xorijiy abituriyent qatnashdi va barchasi expert komissiyasining hulosasiga ko`ra institutning turli yo`nalishlariga o`qishga shartnoma asosida tavsiya etildilar.



Mandat jarayonida institut ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo`yicha prorektori G`.Xodjimatov, qabul komissiyasi bo`yicha mas`ul S.Salaxidinov, xalqaro hamkorlik bo`limi boshlig`i K.Salaxidinovlar ishtirok etib, o`qishga qabul qilingan barcha yoshlarni tabrikladilar.



Diqqat: Andijon davlat tibbiyot institutiga ikkinchi mutaxassislik bo`yicha kirish

imtihonlari !

Andijon davlat tibbiyot institutida 2019-yil 30-avgust kuni **2-mutaxassislik bo'yicha kirish imtihoni** o'tkaziladi.

Kirish imtihoni **biologiya, kimyo, ona-tili va adabiyot** fanlaridan bo'lib o'tadi.

Imtihon Andijon davlat tibbiyot instituti asosiy binosida soat **7:00** da boshlanadi.

Talabgorlar imtihonga pasport bilan kelishlari so'raladi.

Andijon davlat tibbiyot institutida 25 avgust kuni 2019/2020 o'quv yiliga qabul bo'yicha test natijalari e`lon qilindi.



Klinik ordinaturaga kirish imtihonlarining ikkinchi bosqichi bo`lib o`tdi

2019 – yil 23 – avgust kuni Andijon davlat tibbiyot instituti Axborot texnologiyalari markazida 2019-2020 o`quv yili uchun klinik ordinaturaga kirish uchun imtihonlarning 2 – bosqichi bo`lib o`tdi.



Kirish sinovlari jarayonlarini institut rektori M.Madazimov, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo`yicha prorektor G'.Xodjimatov, klinik ordinatura ishlari bo`yicha mas'ul G. To'raeva, ilmiy bo`lim boshlig`i G.Mamatxo`jaeva, qabul komissiyasi mas'uli S.Salaxiddinovlar kuzatib bordilar.



Imtihon jarayonlari adolatli va shaffof tarzda tashkil etilib, abituriyentlar umumiy amaliyot shifokorlari yo`nalishida test sinovlarini belgilangan vaqt oralig`ida topshirdilar.

Test sinovlari tartibli va xolisona o`tkazildi.

